



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

2. Diyorbek Mamarasulov. Raqamli texnologiyalar va AI asosida ichki audit sifatini takomillashtirish. Ilmiy jurnal maqolasi, 2025. (finance.tsue.uz)
3. Erkin Muydinov. Auditda raqamli texnologiyalarni qo‘llash tarixi va istiqbollari. Ilmiy maqola, 2024. (yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz)
4. Sarwo Edi, Asmaul Husna, Fauziah Hanum, Julfan Saputra. Technological Innovation in Accounting Audit: Implications for Audit Efficiency and Effectiveness. Ilmiy maqola, 2024. (jurnal.umsu.ac.id)
5. Impact of audit quality and digital transformation on innovation efficiency: Role of financial risk-taking. Ilmiy tadqiqot, 2024 (Xitoy kompaniyalari misolida). (sciencedirect.com)
6. Emerging digital technologies and auditing firms: Opportunities and challenges. International Journal of Accounting Information Systems, 2024. (sciencedirect.com)
7. N. Y. Avilov. Impact of Digital Transformation on Accounting and Audit in Uzbekistan: Efficiency and Challenges. (ojs.qmii.uz)
8. N. Soibov. Bulutli texnologiyalar orqali korxona buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish. (yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz)
9. I. Bo‘ronov. Raqamli audit: yangi texnologiyalarning auditing jarayonlariga integratsiyasi. (inlibrary.uz)
10. Kafiyev Hojiakbar, Avloqulov Anvar. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va audit amaliyotining dolzarbligi. Scientific Journal, 2025. (scientific-jl.com)

UDK:336.711

BANK AKTIVLARINING TARKIBI VA ULARNI BOSHQARISH OMILLARI

СТРУКТУРА БАНКОВСКИХ АКТИВОВ И ФАКТОРЫ ИХ УПРАВЛЕНИЯ

COMPOSITION OF BANK ASSETS AND FACTORS OF THEIR MANAGEMENT

Xomidov Tolib Toxir o‘g‘li

Andijon davlat instituti Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti Bank ishi va audit K-20-22 guruh

Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna

Andijon davlat texnika instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bank aktivlarining tarkibi, ularning klassifikatsiyasi hamda ularni samarali boshqarishga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Bank aktivlarining sifatini oshirish, risklarni kamaytirish va daromadlilikni ta’minlash jarayonida aktivlarni diversifikatsiya qilish, likvidlikni boshqarish hamda kredit portfeli sifatini nazorat qilish kabi muhim jihatlar yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy bank tizimida raqamli texnologiyalar va risk-menejment tizimlarining o‘rni ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bank aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: bank aktivlari, kredit portfeli, likvidlik, risklarni boshqarish, daromadlilik, diversifikatsiya, bank menejmenti.

В данной статье анализируется структура банковских активов, их классификация, а также основные факторы, влияющие на эффективное управление ими. Рассматриваются такие важные аспекты, как диверсификация активов, управление ликвидностью и контроль качества кредитного портфеля. Также уделяется внимание роли цифровых технологий и систем управления рисками в современной банковской системе. Результаты исследования

направлены на разработку научно-практических рекомендаций по повышению эффективности управления банковскими активами.

Ключевые слова: банковские активы, кредитный портфель, ликвидность, управление рисками, доходность, диверсификация, банковский менеджмент.

This article analyzes the composition of bank assets, their classification, and the main factors influencing their effective management. Key aspects such as asset diversification, liquidity management, and credit portfolio quality control are examined. The study also highlights the role of digital technologies and risk management systems in modern banking. The results provide scientific and practical recommendations for improving the efficiency of bank asset management.

Keywords: bank assets, credit portfolio, liquidity, risk management, profitability, diversification, banking management.

Bugungi globallashuv sharoitida bank tizimi iqtisodiyotning eng muhim va strategik bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Banklar moliyaviy vositachi sifatida jamg‘armalarni jalb qilish, ularni samarali joylashtirish hamda iqtisodiy o‘shishni moliyalashtirish vazifasini bajaradi. Ushbu jarayonda bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish samaradorligi bankning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bank aktivlari asosan kreditlar, investitsion qimmatli qog‘ozlar, naqd pul va uning ekvivalentlari, banklararo kreditlar hamda boshqa moliyaviy aktivlardan tashkil topadi. Ushbu aktivlar tarkibining to‘g‘ri shakllantirilishi bankning daromadlilik darajasiga, likvidlik holatiga hamda risk darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli bank aktivlarini boshqarish jarayoni nafaqat daromadni oshirish, balki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xavflarni kamaytirishga ham yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

So‘nggi yillarda bank tizimida yuz berayotgan raqamli transformatsiya, moliyaviy innovatsiyalar va xalqaro moliya bozorlarining integratsiyalashuvi bank aktivlarini boshqarish jarayonini yanada murakkablashtirmoqda. Bu esa banklardan zamonaviy risk-menejment usullarini qo‘llash, aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish hamda likvidlikni samarali boshqarish bo‘yicha yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Bank aktivlarini boshqarish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, turli olimlar tomonidan ushbu yo‘nalishning nazariy va amaliy jihatlarini turlicha talqin qilingan.

Mishkinning “The Economics of Money, Banking and Financial Markets” asarida bank aktivlari tarkibi bank balansining asosiy qismi sifatida ko‘rib chiqilib, aktivlar sifatini belgilovchi asosiy omil sifatida kredit riskini boshqarish va likvidlikni ta‘minlash masalalari alohida ta‘kidlanadi. Mishkin fikriga ko‘ra, bank aktivlarining asosiy maqsadi yuqori daromadlilikni ta‘minlash bilan birga, risk darajasini minimal darajada ushlab turishdan iboratdir [1].

Rosening “Bank Management & Financial Services” asarida bank aktivlarini boshqarish jarayoni kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozimligi qayd etiladi. Unga ko‘ra, aktivlar tarkibini shakllantirishda diversifikatsiya tamoyili muhim bo‘lib, banklar kredit portfeli, investitsion aktivlar va likvid aktivlar o‘rtasida optimal muvozanatni saqlashi zarur [2]. Rose bank aktivlarini boshqarishda daromadlilik va likvidlik o‘rtasidagi kompromiss (trade-off) asosiy muammo ekanligini ta‘kidlaydi.

Saunders va Cornett o‘zlarining “Financial Institutions Management: A Risk Management Approach” asarida bank aktivlarini boshqarishda risk-menejment yondashuvini asosiy konsepsiya sifatida ilgari suradi. Ularning fikricha, bank aktivlari sifati bevosita kredit riski, bozor riski va operatsion risklarni boshqarish samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, zamonaviy bank tizimida ALM (Asset and Liability Management) tizimi muhim o‘rin egallaydi [3].

Frederic S. Mishkin hamda boshqa iqtisodchilar bank aktivlari tarkibining o‘zgarishi makroiqtisodiy sharoitlar, foiz stavkalari va inflatsiya darajasiga bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Ularning qarashlariga ko‘ra, iqtisodiy beqarorlik sharoitida banklar ko‘proq likvid aktivlarga e‘tibor qaratadi, iqtisodiy o‘shish davrida esa kredit aktivlari ulushi ortadi [1].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar, jumladan, A. Vahobov va N. Xaydarovning ilmiy ishlarida bank aktivlarini boshqarish milliy bank tizimi barqarorligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ularning ta’kidlashicha, O‘zbekiston banklarida aktivlar tarkibida kredit portfelining yuqori ulushi mavjud bo‘lib, bu holat risk darajasini oshirishi mumkin, shuning uchun diversifikatsiya siyosatini kuchaytirish zarur [4].

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlarida ham bank aktivlari sifatini yaxshilash, muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirish hamda likvidlikni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hisobotlarda bank aktivlarini boshqarishda prudensial me’yorlar va kapital yetariligi talablari muhim vosita sifatida ko‘rsatib o‘tiladi [5].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bank aktivlarini boshqarish jarayoni daromadlilik, likvidlik va risk o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan murakkab tizim bo‘lib, zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar va risk-menejment yondashuvlari ushbu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu tadqiqotda bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillarini o‘rganishda tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Bank aktivlari tarkibini aniqlash va ularning o‘zgarish tendensiyalarini baholashda statistik guruhlash va umumlashtirish metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, aktivlar sifatiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashda analiz va sintez usullari asosida nazariy yondashuvlar o‘rganildi. Tadqiqot davomida mahalliy va xalqaro bank tizimi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar hamda amaliy hisobotlar tahlil qilindi. Natijalar bank aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirishga doir xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish samaradorligi bankning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bank aktivlari tarkibida kredit portfeli eng katta ulushni egallaydi va bu holat bank daromadlarining asosiy manbai sifatida xizmat qiladi. Biroq kreditlar ulushining yuqoriligi bir vaqtning o‘zida kredit riski darajasini ham oshiradi, bu esa bank aktivlarini boshqarishda ehtiyotkorlik va diversifikatsiya siyosatini talab etadi.

Bank aktivlari tarkibi odatda quyidagi asosiy guruhlardan iborat: kreditlar, investitsion qimmatli qog‘ozlar, likvid aktivlar (naqd pul va banklararo mablag‘lar) hamda boshqa aktivlar. Ushbu tarkibiy qismlar o‘rtasidagi optimal nisbat bankning likvidlik, daromadlilik va xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanatini ta’minlaydi. Quyidagi jadvalda bank aktivlari tarkibining umumiy tuzilishi keltirilgan.

1-jadval

Bank aktivlari tarkibi va ularning tavsifi

Aktiv turi	Ulushi (%)	Asosiy vazifasi	Risk darajasi
Kredit portfeli	55–70%	Daromad olishning asosiy manbai	Yuqori
Investitsion qimmatli qog‘ozlar	10–20%	Daromad va diversifikatsiya	O‘rta
Likvid aktivlar	10–15%	To‘lov qobiliyatini ta’minlash	Past
Boshqa aktivlar	5–10%	Qo‘shimcha operatsiyalar va xizmatlar	O‘rta

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kredit portfelining yuqori ulushi bankning daromadlilikini oshirsada, muammoli kreditlar (NPL) ko‘payishi holatida bankning umumiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli zamonaviy bank amaliyotida kredit portfelini diversifikatsiya qilish va risklarni kamaytirish asosiy strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, investitsion qimmatli qog‘ozlar ulushi bank uchun muhim barqaror daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu aktivlar bozor riskiga bog‘liq bo‘lsa-da, to‘g‘ri boshqarilganda kredit riskini qisman kompensatsiya qilish imkonini beradi. Likvid aktivlar esa bankning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ta’minlaydi va likvidlik riskini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston bank tizimi amaliyotida ham kredit portfeli ulushi yuqori bo‘lib qolmoqda. Bu esa banklarning iqtisodiy tebranishlarga nisbatan sezgirlikni oshiradi. Quyidagi statistik tahlil natijalari aktivlar tarkibidagi o‘zgarish tendensiyalarini ko‘rsatadi.

2-jadval

Bank aktivlari tarkibining o‘zgarish dinamikasi

Yil	Kreditlar (%)	Qimmatli qog‘ozlar (%)	Likvid aktivlar (%)	NPL darajasi (%)
2022	68	14	12	5.2
2023	66	16	13	4.8
2024	63	18	14	4.1

Jadvaldan ko‘rinadiki, so‘nggi yillarda kreditlar ulushi biroz kamayib, investitsion aktivlar va likvid mablag‘lar ulushi oshib bormoqda. Bu holat banklarning risklarni diversifikatsiya qilishga va likvidlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatini aks ettiradi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushining kamayishi bank aktivlari sifatining yaxshilanayotganini ko‘rsatadi.

Bank aktivlarini boshqarishga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida makroiqtisodiy barqarorlik, foiz stavkalari siyosati, inflyatsiya darajasi hamda regulyator talablar muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, ichki omillar sifatida kredit siyosati sifati, risk-menejment tizimining samaradorligi va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi ham bank aktivlari sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank aktivlarini samarali boshqarish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega: kredit portfelini diversifikatsiya qilish, likvidlik zaxiralarini optimallashtirish, investitsion aktivlar ulushini kengaytirish hamda zamonaviy risk-menejment tizimlarini joriy etish. Ushbu chora-tadbirlar banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va iqtisodiy tebranishlarga chidamliligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish masalalarini o‘rganish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, bankning moliyaviy barqarorligi va rentabelligi aktivlar tuzilmasining optimalligi va boshqaruv samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Kredit portfelining yuqori ulushi daromadni oshirsa-da, kredit riskini ham kuchaytiradi, bu esa muvozanatli boshqaruvni talab etadi.

Tahlillar ko‘rsatadiki, aktivlarni samarali boshqarishda diversifikatsiya muhim bo‘lib, kreditlar, investitsiyalar va likvid aktivlar o‘rtasidagi optimal nisbat bank barqarorligini oshiradi. Shuningdek, risk-menejmentni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va muammoli kreditlarni kamaytirish bank aktivlari sifatini yaxshilashda muhim omillardir.

Umuman olganda, bank aktivlarini boshqarish doimiy takomillashtirishni talab etadigan jarayon bo‘lib, uning samaradorligi bankning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotdagi rolini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rose, Peter S. Bank Management & Financial Services. McGraw-Hill Education, New York, 2018. – betlari: 120–165.
2. Saunders, Anthony; Cornett, Marcia M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. McGraw-Hill Education, New York, 2020. – betlari: 210–275.
3. Mishkin, Frederic S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson Education, Boston, 2019. – betlari: 95–140.
4. Vahobov, A. V.; Xaydarov, N. H. Bank ishi. “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, Toshkent, 2021. – betlari: 55–110.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent, 2024. – betlari: 10–48.